Qabul qilindi: 22-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 28-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 08-noyabr 2026-yil

VODIY GAVHARI:FARG‘ONA TARIXINING SIRLARI VA HAYOTIY SABOQLARI

Xolmatjonova Mushtariybonu Xatamjon qizi
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-5598-9322



Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysining qadimiy tarixi, boy madaniy merosi va bugungi kundagi taraqqiyot jarayonlari yoritilgan. Unda qadimgi Davan davlatining mashhur samoviy otlari, Buyuk Ipak yo‘li rivojida Farg‘onaning tutgan o‘rni, Quva, Rishton va Marg‘ilon kabi tarixiy shaharlarning hunarmandchilik va savdo sohasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning Farg‘ona bilan bog‘liq hayoti, Quva hududidan topilgan buddaviylik yodgorliklari hamda viloyatning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Maqolada tarixiy merosni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarni qadrlash va yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, Davan davlati, samoviy otlar, Buyuk Ipak yo‘li, Quva, Rishton, Marg‘ilon, Zahiriddin Muhammad Bobur, buddaviylik yodgorliklari, tarixiy meros, milliy qadriyatlar, hunarmandchilik, turizm, taraqqiyot, vatanparvarlik.

Аннотация. В статье рассматриваются древняя история, богатое культурное наследие и современные процессы развития Ферганской долины. Анализируются знаменитые «небесные кони» древнего государства Давань, роль Ферганы в становлении Великого шелкового пути, а также значение таких исторических городов, как Кува, Риштан и Маргилан, в развитии ремесел и торговли. Кроме того, в статье освещаются факты из жизни Захириддина Мухаммада Бабура, связанные с Ферганой, буддийские памятники, обнаруженные в районе Кувы, и нынешнее социально-экономическое развитие региона. Особое внимание уделяется важности сохранения исторического наследия, бережного отношения к национальным

ценностям и воспитания чувства патриотизма у подрастающего поколения.

Ключевые слова: Ферганская долина, государство Давань, «небесные кони», Великий шёлковый путь, Кува, Риштан, Маргилан, Захириддин Мухаммад Бабур, буддийские памятники, историческое наследие, национальные ценности, ремесленное мастерство, туризм, развитие, патриотизм.

Abstract. This article explores the ancient history, rich cultural heritage, and contemporary development processes of the Fergana Valley. It analyzes the renowned “celestial horses” of the ancient state of Davan, the role of Fergana in the development of the Great Silk Road, and the significance of historical cities such as Kuva, Rishtan, and Margilan in the realms of craftsmanship and trade. Furthermore, the article discusses the life of Zahiriddin Muhammad Babur in relation to Fergana, Buddhist monuments discovered in the Kuva area, and the region’s current socio-economic development. The text highlights the importance of preserving historical heritage, cherishing national values, and fostering a sense of patriotism among the younger generation.

Keywords: Fergana Valley, State of Davan, heavenly horses, Great Silk Road, Kuva, Rishtan, Margilan, Zahiriddin Muhammad Babur, Buddhist monuments, historical heritage, national values, craftsmanship, tourism, development, patriotism.

Tarix shunchaki shohlar, janglar va sarguzashtlar yozilgan eski kitob emas. Tarix- bu bizning ildizlarimiz, bugungi kunimiz va kelajagimizga tutilgan ko‘zgu.

O‘zbekistonning sharqiy darvozasi go‘zal va so‘lim vodiyning yuragi Farg‘ona aynan shunday tarixga ega.

Hammamiz bilamizki, Farg‘ona tarixda o‘zining samoviy otlari bilan mashhur bo‘lgan. Bundan ikki ming yil oldin Qadimgi Xitoy imperatorlari Farg‘onaga, o‘sha paytdagi Davan davlatiga elchilar va hatto qo‘shin yuborgan. Ularni jalb etgan narsa esa Farg‘onaning afsonaviy samoviy otlari edi. Bu otlar tezligi va chidamliligi bilan butun Sharqqa mashhur bo‘lgan.

Bugungi kunda ko‘chamizda kelayotgan zamonaviy, tezkor mashinalarni ko‘rib quvonamiz, lekin 2000 yil oldin Farg‘ona otlari o‘sha davrning eng so‘nggi rusumdagi

ulovlari ya’ni hozirgi tilda aytganda, mashinalari bo‘lgan.

Farg‘ona Buyuk Ipak yo‘lining eng muhim tugunlaridan biri bo‘lgan. Quva, Rishton va Marg‘ilon kabi qadimiy shaharlar hunarmandchilik hamda savdo markazlariga aylangan. Rishton o‘zining kulolchilik san’ati bilan el-yurt oldida mashhurlikka erishgan va hozirgacha chet eldan kelgan sayyohlarning e’tiboridan chetda qolmaydi. Marg‘ilon haqida gapiradigan bo‘lsam, bu yer o‘zining milliy ipakchilik san’ati bilan butun dunyoni lol qoldirgan. Marg‘ilon Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasi va atlas, adras kabi milliy ipak matolarni ishlab chiqargan. Bugun biz internet orqali onlayn savdo qilayotganimiz kabi, qadimgi marg‘ilonliklar va rishtonlik kulollar o‘z mahsulotlarini Yevropa va Osiyo bozorlariga yetkazib berishgan.



Farg‘ona vodiysining tarixiy ahamiyatini faqat savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan cheklab bo‘lmaydi. Ushbu hududda qadimdan shaharsozlik va obodonlashtirish madaniyati ham rivojlangan. Bunga Namangan viloyatidagi Axsikent va Andijon viloyatidagi Mingtepa kabi arxeologik yodgorliklar misol bo‘la oladi. Xususan, Axsikent miloddan avvalgi III–II asrlarda shakllangan qadimiy shahar markazlaridan biri hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlarda uning hududidan mudofaa devorlari, bozor, hunarmandchilik ustaxonalari va boshqa inshootlarning izlari aniqlangan. Ayniqsa, bu yerda yuqori sifatli po‘lat ishlab chiqarilganligi haqidagi ma’lumotlar qadimgi Farg‘onada metallga ishlov berish ham ancha taraqqiy etganini ko‘rsatadi. Demak, ajdodlarimiz nafaqat savdo va dehqonchilik, balki shaharsozlik, me’morchilik hamda metallurgiya sohalarida ham katta tajribaga ega bo‘lgan.

Hammaga ma’lumki, Farg‘ona hududida ko‘plab allomalar, shoirlar va buyuk insonlar yetishib chiqqan. Hammamiz bilgan buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tug‘ilib o‘sgan maskanidir. Bobur o‘zining,,Boburnoma’’ asarida Farg‘onaning havosi, mevalari, ayniqsa, qovun va anorlarning shirinligini alohida mehr bilan yozgan.

Vatandan yiroqda bo‘lsada, Bobur umrining oxirigacha Farg‘onaning go‘zal tabiatini va odamlarining samimiyligini qo‘msab yashagan.

Farg‘ona tarixidagi meni eng ko‘p qiziqtiradigan voqealardan biri qadimgi Quva shahridan buddaviylikka oid yodgorliklar topilganidir. Ko‘pchilik buddaviylikni Hindiston

yoki Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan bog‘laydi. Lekin qadimgi Quvadan topilgan arxeologik topilmalar bu dinning izlari Farg‘ona vodiysida ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

1957–1959-yillarda Quva shahristonida olib borilgan arxeologik qazishmalar davomida buddaviylik ibodatxonasi qoldiqlari, haykalchalar va Budda haykalining parchalari topilgan. Ushbu yodgorliklar, asosan, milodiy VII–VIII asrlarga oid deb qaraladi. Bu topilmalar qadimgi Quva oddiygina yashash joyi bo‘lmaganini, balki o‘z davrida turli madaniyatlar va e’tiqodlar bilan aloqada bo‘lgan muhim maskanlardan biri ekanini ko‘rsatadi.



Quva hududidagi arxeologik topilmalar Farg‘ona vodiysining qadimda turli madaniyat va diniy qarashlar uchrashgan hudud bo‘lganini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. UNESCOning Farg‘ona-Sirdaryo yo‘lagi bo‘yicha materiallarida Quva qadimgi davrda muhim siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy markazlardan biri sifatida tavsiflanadi. Bu hududdan buddaviylik bilan bog‘liq yodgorliklardan tashqari, zardushtiylik va nasroniylikka aloqador topilmalar ham aniqlangan. Bunday dalillar qadimgi Farg‘ona aholisining boshqa xalqlar bilan aloqalari keng bo‘lganini, turli e’tiqod va madaniy an’analar bir hududda mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuning uchun Farg‘ona tarixini o‘rganish nafaqat bir hududning o‘tmishini, balki Markaziy Osiyodagi madaniyatlararo munosabatlar tarixini ham o‘rganish demakdir.

Farg‘ona tarixini o‘rganar ekanmiz, ajdodlarimizning qanday buyuk ishlarni amalga oshirganiga guvoh bo‘lamiz. Lekin bugungi kunda ham Farg‘onada ko‘plab yaxshi ishlar qilinmoqda. Viloyatimiz kundan-kunga rivojlanib, yangi binolar, korxonalar, yo‘llar va zamonaviy maskanlar barpo etilmoqda. Eng muhimi, odamlarning yashashi, ishlashi va bilim olishi uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Hozirgi kunda Farg‘onada tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va turizmni kengaytirishga katta e’tibor berilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan hududlarni rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Ularning asosiy maqsadi aholi turmushini yaxshilash,

tadbirkorlarga ko‘maklashish va yoshlar uchun ko‘proq imkoniyat yaratishdan iborat.

Masalan, Marg‘ilon shahrida barpo etilgan Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasi viloyatimizdagi muhim loyihalardan biridir. Bu maskan buyuk allomalarimiz merosini o‘rganish, milliy qadriyatlarimizni asrash va sayyohlarni jalb qilishga xizmat qiladi. Marg‘ilon azaldan atlas va adraslari bilan mashhur bo‘lgan. Shunday ekan, bu kabi loyihalar shahrimizning tarixiy obro‘sini yanada oshirishga yordam beradi.

Marg‘ilon ipakchiligining yana bir muhim jihati shundaki, bu yerda mato ishlab chiqarish oddiy to‘qimachilik jarayoni emas, balki ko‘p bosqichli badiiy va texnologik faoliyat hisoblanadi. An’anaviy atlas va adras tayyorlashda ipak qurtini parvarishlashdan boshlab, ipak tolalarini olish, iplarni tayyorlash, bo‘yash, naqsh hosil qilish va to‘qishgacha bo‘lgan jarayonlar amalga oshiriladi. Ayniqsa, abrband usuli orqali iplarning ayrim qismlarini oldindan bog‘lab, bo‘yash natijasida matoda o‘ziga xos rang-barang naqshlar hosil qilinadi. Ushbu texnologiyaning murakkabligi shundaki, naqshning yakuniy ko‘rinishi to‘qish jarayonidan oldin ipda shakllantiriladi. Shu sababli usta nafaqat to‘quvchilik mahoratiga, balki ranglar uyg‘unligi, naqsh kompozitsiyasi va iplarning joylashuvini oldindan hisoblash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak.

Marg‘ilonning bu boradagi tajribasi xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan. 2017-yilda Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazining atlas va adras tayyorlash an’anaviy texnologiyalarini asrash faoliyati UNESCOning ilg‘or tajribalarni saqlash reyestriga kiritilgan. Bu esa milliy ipakchilik san’atining nafaqat tarixiy, balki umuminsoniy madaniy qiymatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Rishton kulolchilik maktabining boshqa hududlardagi kulolchilik an’analaridan ajralib turadigan jihatlaridan biri uning rang va sir tayyorlash texnologiyasidir. Bu yerda mahalliy qizg‘ish loydan foydalanib, turli shakldagi idishlar tayyorlanadi. Buyumlar quritilib, maxsus pechlarda pishirilgach, ularga ishqorli sir bilan ishlov beriladi. Aynan shu texnologiya natijasida Rishton kulolchiligiga xos ko‘k, moviy va feruza ranglar yuzaga keladi. Naqshlarda anor, bodom, barg va o‘simliksimon bezaklardan keng foydalaniladi. Ushbu tasvirlar xalqimizning tabiatga, hosildorlikka va go‘zallikka bo‘lgan munosabatini

ifodalaydi. Rishton kulollarining mahorati shundaki, ular oddiy loyga ishlov berish orqali uzoq vaqt saqlanadigan, kundalik turmushda foydalanish mumkin bo‘lgan va ay ni paytda badiiy qiymatga ega buyumlar yaratadilar.

Tarixiy merosni saqlash faqat qadimiy binolar va arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish bilangina cheklanmaydi. Uning tarkibiga xalq orasida saqlanib kelayotgan kasbiy bilimlar, hunarmandchilik sirlari, an’anaviy ishlab chiqarish usullari va ustoz-shogird maktablari ham kiradi. Chunki moddiy buyumlar vaqt o‘tishi bilan eskirishi mumkin, ammo ularni yaratish texnologiyasi va mahorat avloddan avlodga o‘tkazilsa, milliy madaniyat davomiyligi ta’minlanadi. Shu nuqtayi nazardan, Farg‘ona vodiysidagi hunarmandchilik maktablarini rivojlantirish, yoshlarni amaliy kasblarga o‘rgatish va mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish muhim vazifalardan biridir. Tarixiy an’analarni zamonaviy dizayn, texnologiya va turizm bilan uyg‘unlashtirish orqali hududning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish mumkin.



Xulosa qilib aytganda, Farg‘onaning kechagi tarixi bizga faxrlanishni, bugungi hayoti esa oldinga intilishni o‘rgatadi. Biz yoshlar ham ajdodlarimiz merosini asrab, yaxshi o‘qib, kasb-hunar egallab, kelajakda yurtimizga foydasi tegadigan insonlar bo‘lishimiz kerak. Axir Farg‘onaning ertangi kuni bugun qilayotgan mehnatimiz va intilishlarimizga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anorboyev A., Islomov U., Matboboyev B. O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona. — Toshkent: Fan, 2001.

2. Bernshtam A.N. Древняя Фергана. — Toshkent, 1951.

3. Булатова В.А. Древняя Кува. — Toshkent: Fan, 1972.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — Toshkent.

5. UNESCO. Margilan Crafts Development Centre, Safeguarding of the Atlas and Adras Making Traditional Technologies. 2017.

6. UNESCO World Heritage Centre. Silk Roads: Fergana-Syrdarya Corridor.

7. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi. Kulolchilik va an’anaviy hunarmandchilik materiallari.

8. Karimova N.V. Development of Urbanization Processes in the Fergana Valley in the Ancient Period. Tarixiy tadqiqotlar, 2025.

